

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

KREATIV YONDASHUV ASOSIDA SOFT SKILLS KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Samandarova Muhayyo Qahramon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, mustaqil izlanuvchi.

e-mail: muhayyosamandarova297@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0002-8740-9118>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada kreativ pedagogik yondashuv asosida talabalarning soft skills ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari tahlil qilingan. Soft skills ko'nikmalarining kasbiy faoliyatdagi ahamiyati, ularni ta'lim jarayonida samarali shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik yondashuvlar hamda innovatsion o'qitish metodlarining imkoniyatlari yoritilgan. Uzlaksiz ta'lim jarayonida shaxsni o'qitishning ijodiy yo'nalishini amalga oshirishning pedagogik shartlari to'g'risida

Kalit so'zlar: kreativ pedagogika, kreativ pedagogik yondashuv, soft skills, ijtimoiy-emotsional ko'nikmalar, kasbiy kompetentlik, kommunikativ kompetensiya, hamkorlik, tanqidiy fikrlash, muammoni hal etish, innovatsion ta'lim.

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ МЯГКИХ НАВЫКОВ НА ОСНОВЕ ТВОРЧЕСКОГО ПОДХОДА

Самандарова Мухайё Кахрамон кизи

Чирчикский государственный педагогический университет, независимый исследователь.

Аннотация.

В статье анализируются теоретико-методические основы развития soft skills у студентов на основе креативного педагогического подхода. Освещается важность навыков soft skills в профессиональной деятельности, педагогические подходы, способствующие их эффективному формированию в образовательном процессе, а также возможности инновационных методов обучения. О педагогических условиях реализации творческого направления обучения личности в процессе непрерывного образования

Ключевые слова: креативная педагогика, креативный педагогический подход, soft skills, социально-эмоциональные навыки, профессиональная компетентность, коммуникативная компетентность, сотрудничество, критическое мышление, решение проблем, инновационное образование.

DEVELOPING SOFT SKILLS BASED ON A CREATIVE APPROACH

Samandarova Muhayyo Qahramon qizi

Chirchiq State Pedagogical University, Independent Researcher.

Abstract.

This article analyzes the theoretical and methodological foundations of developing students' soft skills based on a creative pedagogical approach. The importance of soft skills in professional activities, pedagogical approaches that effectively form them in the educational process, and the possibilities of innovative teaching methods are highlighted. On the pedagogical conditions for the implementation of a creative approach to teaching a person in the process of continuing education

Keywords: creative pedagogy, creative pedagogical approach, soft skills, socio-emotional skills, professional competence, communicative competence, collaboration, critical thinking, problem solving, innovative education.

Kirish. Globallashuv, jadal o'zgarishlar oliy ta'lim tizimi oldiga nafaqat chuqur kasbiy bilimga ega, balki turli kasbiy va ijtimoiy vaziyatlarda samarali faoliyat yurita oladigan mutaxassislarni tayyorlash vazifasini qo'yimoqda. Shu bois ta'lim mazmunida kasbiy kompetensiyalar bilan bir qatorda shaxsning kommunikativ, hamkorlikka tayyorlik, tanqidiy va kreativ fikrlash, liderlik, moslashuvchanlik hamda emotsional intellekt kabi soft skills ko'nikmalarini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biriga aylanmoqda. Mazkur ko'nikmalar mutaxassisning kasbiy muvaffaqiyati, jamoada samarali faoliyat olib borishi va o'zgaruvchan sharoitlarga moslasha olishida muhim omil sifatida e'tirof etiladi.

Hozirgi davrda har qaysi jamiyat kreativ shaxslarga ehtiyoj sezadi. Bu tabiiy hol, albatta. Chunki dunyoda har daqiqada sodir bo'layotgan o'zgarishlar shuni taqozo qilmoqda. Shu munosabat bilan turli soha olimlarining e'tibori pedagogik jarayon sharoitida talaba shaxsining kreativ salohiyatini ochish va rivojlantirish muammosiga qaratilgan. Demak, zamonaviy ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonni tashkil etishning yangi paradigmatic asoslarini ishlab

chiqish zarurati tug'iladi va bu esa pedagogikaning yangi innovatsion yo'nalishi, ya'ni kreativ pedagogikaga murojaat qilishga imkoniyat yaratadi. Kreativ pedagogika muammolari yaxlit pedagogik nazariya va boshqa ijtimoiy fanlar tizimida: pedagogika tarixi va ta'lim falsafasi, umumiy va kasbiy pedagogika va psixologiya, o'qitish va tarbiyalash usullari va texnologiyalari, kasbiy etika va boshqalarda ko'rib chiqiladi. Doimiy o'zgarib turadigan tashqi va ichki dunyo, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va faoliyat mazmuniga mos keladigan kreativ shaxsning shakllanishi va rivojlanishi inson ontogenezing butun davri — tug'ilishdan to umrining oxirigacha davomiylik, uzluksizlik va qamrab olishni talab qiladi. Pedagogikada shaxsning kasbiy va ijodiy salohiyatini shakllantirish va rivojlantirish asosida uning kasbiy va ijodiy faoliyati tajribasini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar deyarli yo'q. An'anaviy professional tajriba bilim, ko'nikma va malakalarning birlashuvi sifatida aniqlanadi. Bu faoliyatni o'zlashtirish jarayonida tajribaning shakllanishi o'z-o'zidan sodir bo'lishini anglatadi. Ijodiy faoliyat tajribasini o'rganish masalasi umuman ko'tarilmaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Kreativlik nima? Amerikalik psixolog Avraam Maslouning fikricha, bu har bir kishiga xos bo'lgan, lekin mavjud tarbiya, ta'lim va ijtimoiy amaliyot tizimi ta'sirida ko'pchilik tomonidan yo'qolgan ijodiy yo'nalishdir.

Kreativlik qobiliyati bir in'om va shuning uchun kreativlikni o'rgatish mumkin emas degan keng tarqalgan fikrdan farqli o'laroq, M.M. Zinovkina [1; 83 p.] boshqacha yondashuvga ishora qiladi. Texnologiya va ixtirolar tarixini o'rganish, atoqli olim va ixtirochilarning ijodiy hayoti tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning barchasi yuqori (o'z davri uchun) fundamental bilimlar bilan bir qatorda maxsus bilimlar ombori yoki algoritmik fikrlash, shuningdek, ma'lum bilimlar, shu jumladan evristik usullar va texnikalarga ega bo'lishgan. Ingliz psixologi E.P. Torrens [2; 100 p.] kreativlikning quyidagi jihatlarini ilgari surgan:



1-rasm. Kreativlikni o'ziga xos jihatlar.

Lotin tilida "**kreativlik**" tushunchasi quyidagicha izohlanadi: "**creatio**" — "**yaratish**", "**creator**" — "**yaratuvchi, ijodkor**" degan ma'nolarni anglatadi. Mohiyatan esa bu tushuncha insonning ijodiy qobiliyatlari namoyon bo'lishini ifodalaydi. Ijodkor shaxslar — rassomlar, haykaltaroshlar, yozuvchilar, shoirlar, fotosuratchilar va boshqa ijodiy faoliyat vakillari bo'lib, ular turli irod sohaslarida o'z qobiliyatlarini namoyon etadilar. Ijodkorlik, shuningdek, dizaynerlar, reklama mutaxassislari, marketologlar, brend-menejerlar va boshqa soha vakillariga ham xos muhim xususiyat hisoblanadi.

Kasbiy va ijodiy faoliyatni faol o'zlashtirish hamda uni samarali amalga oshirish nafaqat bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish va integratsiyalashni, kasbiy faoliyatni bajarishning individual usul va uslublarini ishlab chiqishni, balki kasbiy irod metodologiyasini o'zlashtirish hamda ijodiy fikrlashni rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi. Ijodkor shaxsning shakllanishini amalga oshirilayotgan ijodiy faoliyat va erishilgan ijodiy natijalarga muvofiq ravishda shaxsning shakllanishi va rivojlanishi sifatida ta'riflash mumkin. Bu jarayonning sur'ati va yo'nalishi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning o'z faoliyati va ijodiy fazilatlarini, shuningdek, mavjud sharoitlar, hayotiy voqealar hamda kasbiy jihatdan belgilangan omillar bilan bog'liq. Ijodkor shaxsni shakllantirish bilan ijodiy ta'lim o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud.

Pedagogika sohasidagi ilmiy izlanishlar tahlili kreativ yondashuvning ta'lim jarayonida talabaning bilish faolligini oshirish, mustaqil fikrlashni qo'llab-quvvatlash va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishda samarali vosita ekanligini ko'rsatadi. Mazkur yondashuv o'quv faoliyatini reproduktiv xarakterdan izlanuvchan va muammoga yo'naltirilgan faoliyatga o'tkazishga xizmat qiladi. Natijada talaba nafaqat nazariy bilimlarni egallaydi, balki ularni amaliy vaziyatlarda qo'llash, hamkorlik qilish va innovatsion yechimlar ishlab chiqish tajribasiga ham ega bo'ladi.

MUHOKAMA

Soft skills ko'nikmalarining mazmuni va tarkibi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda kommunikativ kompetensiya, tanqidiy va kreativ fikrlash, emotsional intellekt, vaqtni boshqarish, moslashuvchanlik, jamoada ishlash hamda liderlik ko'nikmalari asosiy komponentlar sifatida qayd etilgan. Tadqiqotchilar ushbu ko'nikmalarni alohida fan doirasida emas, balki barcha o'quv fanlari mazmuniga integratsiyalashgan holda rivojlantirish yuqori natija berishini ta'kidlaydilar.

Ijod madaniyat singari inson hayotiga, demak, ta'lim tizimiga ham kirib borishi kerak. Binobarin, kreativ pedagogikaning pedagogika fanining yangi tarmog'i sifatida rivojlanishi uchun qator shart-sharoitlar mavjud.

Kreativ pedagogika — bu ijodiy ta'lim haqidagi fan va san'atdir. U pedagogikaning o'ziga xos yo'nalishi bo'lib, talabalarni ijodiy fikrlashga, mustaqil qaror qabul qilishga va o'z kelajagining faol yaratuvchisi bo'lishga o'rgatadi. Kreativ pedagogika matematika, fizika, tillar, iqtisodiyot va boshqa fanlarni o'qitish jarayonida qo'llanilishi mumkin. Ma'lum darajada aytish mumkinki, uning metodologiyasi o'qitish va o'rganish jarayonining mazmuni hamda tashkil etilishiga yangicha yondashuvni ta'minlaydi.

Rivojlangan kreativlik shaxs ijodkorligining muhim tarkibiy qismidir. U shaxsning kognitiv maqsadga erishish, boshlangan ijodiy ishni davom ettirish, bilish faoliyatidagi qiyinchiliklarni bartaraf etish, aqliy harakatlarni rejalashtirish va ketma-ket amalga oshirish, maqsadga erishishning turli variantlari hamda usullarini izlashga bo'lgan intilishida namoyon bo'ladi. Shuningdek, shaxsda stenik tuyg'ular — kognitiv va ijodiy faoliyatdan quvonish, ijod jarayonidagi qiyinchiliklarni yengishga tayyorlik, kognitiv yoki ijodiy maqsadga erishishdan g'ururlanish, yangi narsalarni yaratish imkoniyatidan zavqlanish, ijodiy faoliyat boshlanishidagi optimistik kayfiyat, uning ijobiy natijasini kutish hamda muvaffaqiyatsizlik holatlarida xotirjamlikni saqlash kabi sifatlar ham shakllanadi.

Inson aql-zakovati sohasidagi mutaxassislar ijodiy jarayonni ta'minlash uchun konvergent (mantiqiy, ketma-ket, chiziqli) va divergent (yaxlit, intuitiv, assotsiativ) tafakkurning uyg'unligi zarur, deb hisoblaydilar. Tafakkur xususiyatlarining bunday uyg'unligi natijasida fikrlashning ravonligi va moslashuvchanligi, o'ziga xosligi hamda hukmlarning aniqligi namoyon bo'ladi [3; 117–130-b.].

Pedagogik jarayonda ijodkorlikni rivojlantirish uchun shaxs salohiyati va ijodiy faolligini oshirishga xizmat qiladigan o'qitish metodlari hamda texnologiyalaridan foydalanish zarur. Ushbu texnologiyalar shaxsning o'zini o'zi qadrlashini shakllantirish, o'z imkoniyatlariga bo'lgan ishonchini oshirish hamda voqelik bilan adekvat munosabat o'rnatishga to'squinlik qiluvchi psixologik qiyinchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi.

Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchi faoliyatining ustuvor yo'nalishi muloqotning dialogik usullariga, yechimni birgalikda izlashga va turli ijodiy faoliyat turlariga qaratiladi. Bularning barchasi o'qitishning interfaol usullarini qo'llash orqali amalga oshiriladi. Interfaol ta'lim jarayonida talabalar tanqidiy fikrlashni, vaziyat va tegishli ma'lumotlarni tahlil qilish asosida murakkab masalalarni yechishni, muqobil fikrlarni topishni, puxta o'ylangan qarorlar qabul qilishni hamda muhokamalarda qatnashishni o'rganadilar. Buning uchun darslar juftlik va guruh usullari asosida tashkil etiladi, ilmiy-tadqiqot loyihalari va rolli o'yinlardan foydalaniladi [4; 15–16-b.].

Kreativlikni rivojlantirishning bosh maqsadi talabalarning aqliy faoliyati va mantiqiy fikrlashini rivojlantirishdan iborat. Buning uchun biz talaba erishgan rivojlanish darajasi bilan cheklanib qolmasdan, undan bir qadam oldinga chiqib, uning mavjud fikrlash imkoniyatlaridan biroz yuqoriroq talablarni qo'yishimiz kerak. Shuningdek, kreativlikni rivojlantirish quyidagi vazifalarni hal qilishga yordam beradi:

1. Talabalarni turli yo'nalishlarda fikrlashga o'rgatish.
2. Nostandart vaziyatlarda muammoning yechimlarini topishga o'rgatish.
3. Aqliy faoliyatning o'ziga xosligini rivojlantirish.
4. Talabalarni mavjud muammoli vaziyatni turli tomonlardan tahlil qilishga o'rgatish.
5. Tez o'zgaruvchan dunyoda samarali faoliyat yuritish va moslashish uchun zarur bo'lgan fikrlash xususiyatlarini rivojlantirish.

Shu o'rinda pedagogik kreativlikni rivojlantirishning muhim shartlaridan biri o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda insonparvarlik psixologiyasi tamoyillarini amalga oshirishdir. Ushbu tamoyillar quyidagilarni nazarda tutadi:

1. Har bir talabaning g'oyasini yuqori baholash, barcha g'oya va javoblarni ijobiy qo'llab-quvvatlash hamda ulardan yangicha qarash imkoniyati sifatida foydalanish.
2. O'zaro ishonch va psixologik xavfsizlik muhitini yaratish.
3. Tanlash va qaror qabul qilishda mustaqillikni ta'minlash.

Kreativ salohiyatga ega o'qituvchi quyidagi sifatlarga ega bo'ladi:

- kreativ fikrlash doirasi kengayadi;
- tadqiqot ko'nikmalarini yaxshi egallaydi;
- pedagogika yoki maxsus fan yutuqlari hamda ilg'or tajribalardan foydalanish imkoniyatlarini mustaqil tahlil qiladi;

– professor-o'qituvchilar tomonidan olib borilayotgan ijodiy loyihalar va ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda faol ishtirok etadi.

Kreativ fikrlaydigan o'qituvchiga qo'yiladigan zamonaviy talablar shundan iboratki, u faqat axborot beruvchi emas, balki talabalarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda muvofiqlashtiruvchi (koordinator), boshqaruvchi (menejer), muloqot tashkilotchisi va maslahatchi bo'lishi kerak. O'qituvchi bilimlarni o'zlashtirishning eng samarali usullarini izlashni qo'llab-quvvatlaydi va boshqaradi, qiziqarli kashfiyotlarni rag'batlantiradi, muvaffaqiyatsiz urinishlarni tahlil qilishga yordam beradi hamda talabalarni muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklardan tegishli xulosalar chiqarishga undaydi.

NATIJALAR

Tadqiqot davomida kreativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarning soft skills

ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali metodik vosita ekanligi aniqlandi. Tadqiqotning ilmiy farazini tekshirish hamda kreativ yondashuv asosida talabalarining soft skills ko'nikmalarini rivojlantirish samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari Kattaqo'rg'on davlat pedagogika universiteti, Yangi Asr universiteti hamda Namangan davlat pedagogika institutida pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi talabalari ishtirokida tashkil etildi.

Tajriba-sinov ishlariga pedagogika yo'nalishida tahsil olayotgan jami 307 nafar talaba jalb etildi. Shundan 151 nafari tajriba guruhini, 156 nafari nazorat guruhini tashkil etdi. Guruhlarni shakllantirishda talabalarining tayyorgarlik darajasi va o'quv ko'rsatkichlarining o'zaro yaqinligiga alohida e'tibor qaratildi. Bu esa tajriba natijalarining ishonchliligini ta'minlashga xizmat qildi.

Tajriba-sinov ishlari uch bosqichda olib borildi. Diagnostik bosqichda talabalarining kommunikativ kompetensiyasi, tanqidiy va kreativ fikrlashi, emotsional intellekti, jamoada ishlash, liderlik, moslashuvchanlik hamda vaqtni boshqarish ko'nikmalarining dastlabki holati pedagogik kuzatish, anketa, suhbat va diagnostik topshiriqlar asosida baholandi.

Shakllantiruvchi bosqichda tajriba guruhlarida kreativ yondashuv asosida tashkil etilgan interfaol mashg'ulotlar, muammoli ta'lim, loyiha faoliyati, kichik guruhlarda ishlash, "Aqliy hujum", "Case study", reflektiv tahlil hamda hamkorlikka asoslangan ta'lim texnologiyalaridan tizimli ravishda foydalanildi. Nazorat guruhlarida esa o'quv jarayoni amaldagi an'anaviy o'qitish metodlari asosida davom ettirildi.

Yakuniy bosqichda o'tkazilgan takroriy diagnostika natijalari qiyosiy tahlil qilindi. Tahlillar kreativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarining soft skills ko'nikmalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Xususan, tajriba guruhi talabalarida kommunikativ kompetensiya, tanqidiy va kreativ fikrlash, jamoada ishlash, emotsional intellekt, liderlik hamda muammolarni innovatsion hal etish ko'nikmalarining rivojlanish ko'rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlandi.

1-jadval Tajriba-sinov ishtirokchilarining taqsimlanishi

TM	Oliy ta'lim muassasasi	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi	Jami
1	Kattaqo'rg'on davlat pedagogika universiteti	52	54	106
2	Yangi Asr universiteti	49	51	100
3	Namangan davlat pedagogika instituti	50	51	101
Jami		151	156	307

O'quv mashg'ulotlarida interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar, loyiha faoliyati, hamkorlikda o'qitish hamda reflektiv tahlil elementlaridan foydalanish talabalarining o'quv faolligini oshirib, ularning mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuvini rivojlantirishga xizmat qildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, kreativ yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda talabalar o'z fikrini erkin ifodalash, jamoada samarali ishlash, muammolarni tahlil qilish va ularga innovatsion yechimlar ishlab chiqish ko'nikmalarini faol namoyon etdilar. Shuningdek, muloqot madaniyati, emotsional barqarorlik, vaqtni samarali boshqarish, mas'uliyatni his etish va liderlik sifatlarining rivojlanishida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi.



2-rasm. Kreativ yondashuv asosida soft skills ko'nikmalarini rivojlantirish modeli.

Mazkur model kreativ yondashuv asosida talabalarning soft skills ko'nikmalarini rivojlantirishning o'zaro bog'liq komponentlarini aks ettiradi. Modelning markazida kreativ yondashuv joylashgan bo'lib, u ta'lim jarayonining asosiy metodologik negizi sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv talabalarning ijodiy fikrlashi, mustaqil izlanishi, muammolarni hal etishi, hamkorlikda ishlashi, refleksiya qilishi va innovatsion g'oyalarni ilgari surish faoliyatini rag'batlantiradi.

Modelning tarkibiy qismlarini dolzarblik, yondashuv asoslari, soft skillsning asosiy komponentlari, qo'llaniladigan metod va texnologiyalar, kreativlikni rivojlantirish vazifalari, insonparvarlik tamoyillari hamda kutilayotgan natijalar tashkil etadi. Soft skills tarkibiga kommunikativ kompetensiya, tanqidiy va kreativ fikrlash, emotsional intellekt, vaqtni boshqarish, moslashuvchanlik, jamoada ishlash va liderlik ko'nikmalari kiritilgan. Modelda interfaol metodlar, muammoli ta'lim, loyiha faoliyati, rolli o'yinlar, guruhlarda ishlash va refleksiv tahlil talabalarning amaliy faoliyatini faollashtiruvchi asosiy pedagogik vositalar sifatida ifodalangan. Mazkur metodlar orqali talabalarda mustaqil qaror qabul qilish, samarali muloqot qilish, hamkorlikda ishlash va kreativ yechimlar ishlab chiqish kompetensiyalari shakllanadi.

Modelning yakuniy natijasi sifatida ijodkor, tashabbuskor, kasbiy faoliyatga tayyor, o'zgaruvchan mehnat bozori talablariga moslasha oladigan hamda rivojlangan soft skills ko'nikmalariga ega raqobatbardosh mutaxassisni shakllantirish nazarda tutiladi. Shunday qilib, model kreativ yondashuv, zamonaviy o'qitish metodlari va soft skills komponentlarining uzviy integratsiyasini ta'minlaydigan yaxlit metodik tizimni ifodalaydi.

XULOSA

Kreativlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ta'lim jarayonida maqsadli ravishda yaratiladigan ijodiy muhit, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi hamkorlik munosabatlari hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning samarali qo'llanilishiga bevosita bog'liqdir. O'qituvchining ijodiy xulq-atvori, yangilikka ochiqqligi va innovatsion yondashuvi talabalarda mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik va ijodiy faoliyatni rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, ta'lim jarayonida psixologik jihatdan qulay va erkin muloqot muhitini yaratish, talabalarni erkin fikr bildirishga rag'batlantirish hamda ularning har bir g'oyasiga ijobiy munosabatda bo'lish kreativ salohiyatning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari kreativ yondashuv asosida tashkil etilgan o'quv mashg'ulotlari talabalarning soft skills ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita ekanligini ko'rsatdi. Xususan, tajriba-sinov ishlari yakunlari talabalarda kommunikativ kompetensiya, tanqidiy va kreativ fikrlash, jamoada ishlash, liderlik, emotsional intellekt hamda muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarining sezilarli darajada rivojlanganligini tasdiqladi. Olingan natijalar kreativ metodlar va interfaol ta'lim texnologiyalarining bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirishdagi amaliy ahamiyatini yana bir bor isbotladi.

Talabalar ijodiy salohiyatining samarali rivojlanishi uzluksiz ta'lim tizimida izchil va maqsadli pedagogik ta'sirni tashkil etishni talab etadi. Bunda kreativ pedagogika nafaqat nazariy, balki amaliy yo'nalishda ham rivojlantirilishi, ta'lim mazmuniga zamonaviy innovatsion metod va texnologiyalarni keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, kreativ yondashuvni fanlararo integratsiya asosida tashkil etish bo'lajak mutaxassislarning kasbiy moslashuvchanligini, raqobatbardoshligini va innovatsion faoliyatga tayyorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Zinovkina M. M. *Theoretical Basis of Purposeful Forming Creative Technical Thinking and Engineering Skills of the Students*. – Moscow: Plant-Technical College, 1987. – 83 p. – URL: <https://www.scirp.org/reference/referencespapers?referenceid=681214>
2. Torrance E. P. Creativity and Futurism in Education: Retooling // *Education*. – 1980. – Vol. 100, No. 4. – P. 298–311. – URL: <https://eric.ed.gov/?id=EJ224244>
3. Ермолаева-Томина Л. Б. Исследование факторов, детерминирующих индивидуальные различия в проявлении творческой активности // *Психология творчества*. – Москва, 1990. – С. 117–130.
4. Raxmanova M. Q., Karamov B. K., Sulaymonova M. E. Kreativ pedagogika: darslik. – Chirchiq: Osiyo tur, 2024. – 228 b. – URL: <https://unilibrary.uz/literature/529329>
5. Karimova B. E. Kreativ pedagogika: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022. – 320 b. – URL: <https://unilibrary.uz/literature/696856> (murojaat sanasi: 11.08.2026).
6. Xoliqov A. A. Pedagogik mahorat: darslik. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2011. – 420 b. – ISBN 978-9943-13-318-1. – URL: <https://namdu.uz/books/6238> (murojaat sanasi: 11.08.2026).
7. Omonov H. T., Xo'jayev N. X., Madyarova S. A., Eshchonov E. U. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat: darslik. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2009. – 240 b. – ISBN 978-9943-13-110-1. – URL: <https://akbt.urdu.uz/uz/books/5393> (murojaat sanasi: 11.08.2026).
8. Yuldashev D., Yuldashev O., Mahmudjanova D., Umirzakov Q., Abdurakhmanova N., Salimova D., Saliyev U., Solijonova S. Investigating the Role of Epigenetics in the Evolution of Language and Speech Patterns Across Different Cultures // *Genetics and Molecular Research*. – 2026. – Vol. 25, No. 1. – DOI: <https://doi.org/10.4238/qkywx111>. – URL: <https://geneticsmr.com/index.php/gmr/article/view/360>
9. Samandarova M. Q. Methodological Significance of Social Activity in Preparing Students for Professional Activity // *European International Journal of Pedagogics*. – 2025. – Vol. 5, No. 11. – P. 172–175. – DOI: <https://doi.org/10.55640/eijp-05-11-40>. – URL: <https://eipublication.com/index.php/eijp/article/view/3606>